

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR**Jamoliddinov Jasurbek****Farg'ona davlat Texnika Universiteti****Axborot Texnologiyalari va Telekommunikatsiya****74-25 guruh talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.17922518>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillikka erishgan O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimining shakllanishi va uning qonun bilan mustahkamlanishi, Oliy va o'rta maxsus ta'limning joriy etilishi, unga oid davlat qonunlari, ularga kiritilgan o'zgarishlar haqida asosiy ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ajdodlar merosi, Milliy ma'naviy ruhni yangilash, Oliy ta'lim, o'rta maxsus ta'lim, boshlang'ich ta'lim, Ta'lim to'g'risidagi davlat qonunlari.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН**Джамолиддинов Ясurbek****Ферганский государственный технический университет****Информационные технологии и телекоммуникации****Студент группы 74-25****АННОТАЦИЯ**

В данной статье представлена основная информация о формировании системы образования в независимой Республике Узбекистан и ее законодательном закреплении, введении высшего и среднего специализированного образования, соответствующих государственных законов и внесенных в них изменений.

Ключевые слова: Наследие предков, Возрождение национального духовного духа, Высшее образование, среднее специализированное образование, начальное образование, Государственные законы об образовании.

EDUCATION REFORMS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**Jamoliddinov Jasurbek****Fergana State Technical University****Information Technologies and Telecommunications****74-25 group student****ABSTRACT**

This article provides basic information about the formation of the education system in the newly independent Republic of Uzbekistan and its strengthening by law, the introduction of higher and secondary special education, the relevant state laws, changes in them.

Keywords: Ancestor Heritage, National Spiritual Renewal, Higher Education, Secondary Special Education, Primary Education, State Laws on Education.

O'rta Osiyo, xususan, yurtimiz azal-azaldan ilm-ma'rifat o'chog'i, jahon sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biri sifatida e'tirof etib kelinadi. O'rta asrlardayoq xalqimiz ta'lim sohasi bo'yicha yuksak marralarga erishgan bo'lib, umumjahon madaniyatida munosib o'rin egallagan va fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. IX-XII asrlarda Movarounnahr hududida ko'plab ilmiy maktablar, madrasalar va o'quv maskanlari faoliyat yuritgan. Aynan shu maskanlardan

chinakam olimlar, allomalar, ulamolar yetishib chiqqan. Xorazm Ma'mun akademiyasi ham shu davrning eng yirik ilmiy-tadqiqot markazlaridan biri bo'lgan.

Bundan tashqari, yana bir buyuk ajdodimiz — Abu Ali ibn Sino XI asrdayoq, fan va texnika inqilobi hatto tasavvur qilinmagan, eng sodda tibbiy asbob-uskunalar ham mavjud bo'lmagan davrlarda murakkab dori-darmonlarni tayyorlagani, murakkab jarrohlik muolajalarini amalga oshirgani bilan butun dunyoga mashhurdir. Uning "Tib qonunlari" asari esa Yevropada "Injil"dan keyin eng ko'p nashr etilgan kitoblardan biri bo'lib, qariyb 500 yil davomida dunyoning ko'plab nufuzli oliy o'quv yurtlarida barcha talabalar uchun asosiy darslik vazifasini bajargan.

Buyuk mutafakkir Al-Farg'oniy astronomiya fanida birinchi bo'lib geosentrik emas, balki geliosentrik nazariyaning asoschilaridan biri sifatida tan olinadi. U Yerning Quyosh atrofida aylanishini aniq hisob-kitoblar bilan isbotlab bergan. Yana bir buyuk bobomiz — Temuriyzoda Mirzo Ulug'bek XV asrdayoq Samarqandda ulkan observatoriya barpo etib, yulduzlar xaritasini yaratgan. U yulduzlarning joylashuvini shu qadar aniq hisoblaganki, zamonaviy fan-texnika bu ma'lumotlarning hozirgi natijalar bilan atigi bir-ikki daqiqa farq qilishini tasdiqlagan. Bu esa ota-bobolarimiz jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan buyuk shaxslar bo'lganini yana bir bor ko'rsatadi. Sobiq ittifoq davrida ta'lim tizimi markazning mafkuraviy manfaatlariga bo'ysundirilgan edi. Ko'plab fanlar o'quv dasturlariga kiritilmagan, mavjudlari esa biryoqlama talqin qilingan. Masalan, O'zbekiston tarixi fani xolis o'rganilmas, ajratilgan soatlarning katta qismi sobiq ittifoq tarixini o'rganishga bag'ishlanardi. O'quvchilarning ongi vatanimiz tarixining noto'g'ri talqinlari bilan to'ldirilgan, milliy qadriyat va ma'naviyat esa e'tiborsiz qoldirilardi. Asl o'zbek olimlari, buyuk davlat arboblari va sarkardalarining hayoti hamda ijodi esa ko'pincha kamsitilgan holda yoritilgan. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, barcha sohalarda tub o'zgarishlar amalga oshirila boshlandi. Ayniqsa, ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratildi. Ta'lim-tarbiya tizimi takomillashgani sari xalqning ma'naviyati, ongi va tafakkuri yuksalib bordi. Ta'lim tizimini shaklan ham, mazmunan ham yangilash zarur edi. Zero, jamiyat yangi shaxsni tarbiyalashni, odamlarning dunyoqarashi va bilim saviyasini zamon talabiga mos ravishda o'zgartirishni taqozo etar edi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov mustaqillikning ilk yillaridanoq ana shu jihatlarni inobatga olib, milliy qadriyatlar va an'analарimizga asoslangan yangicha dunyoqarashni shakllantirishga katta e'tibor qaratdi. U ta'limning jamiyat hayotidagi o'rnini alohida ta'kidlab: "Ta'lim O'zbekiston xalqi ma'naviyatiga yaratuvchanlik faolligini baxsh etadi. O'sib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi, kasb-kori va mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi o'zlashtiriladi va yosh avlodga o'tadi", — deya qayd etganlar.

Yoshlar, ularning iqtidorliligi va bilimga chanqoqligini inobatga olgan holda jamiyatda ta'lim va ma'naviyatga bo'lgan yondashuv yanada chuqurlashib bormoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasida 1997-yil 29-avgustda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonun qabul qilindi[1]. Mazkur dastur "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qoidalariga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan bo'lib, mamlakat ta'lim tizimini tubdan yangilashga asos bo'lgan hujjatlardan biridir. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 23-sentyabr kuni "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangi tahririni imzoladi, — deya xabar bergan Adliya vazirligi matbuot xizmati. Ushbu hujjat 19-mayda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilingan va 7-avgustda Senat tomonidan ma'qullangan edi.

Qonunga muvofiq, O'zbekistonda ta'lim quyidagi turlardan iborat:

- Maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- Professional ta'lim;
- Oliy ta'lim;
- Oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- Kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish;
- Maktabdan tashqari ta'lim.

Umumiy o'rta ta'lim 1–11-sinflarni o'z ichiga oladi. O'rta maxsus ta'lim esa akademik litseylarda, to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil davomida amalga oshiriladi. Professional ta'lim uch bosqichga bo'linadi: boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim. Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida 9-sinf bitiruvchilari uchun kunduzgi, 2 yillik integratsiyalashgan dastur asosida bepul taqdim etiladi. O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida, davomiyligi 2 yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari orqali amalga oshiriladi. O'rta maxsus professional ta'lim esa texnikumlarda o'qitilib, davomiyligi kamida 2 yil bo'lgan kunduzgi, kechki yoki sirtqi shakllarda tashkil etiladi. Qonunga ko'ra, davlat oliy ta'lim, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari hamda ularning filiallari Prezident yoki hukumat qarorlari asosida tashkil etiladi. Nodavlat ta'lim tashkilotlariga litsenziya esa Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladi. Bunday ta'lim muassasalarini tashkil etish ularning ta'sischilari tomonidan amalga oshiriladi. Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi. Eng samarali investitsiya — bu ta'limga qilingan investitsiyadir. Chunki jamiyat taraqqiyoti, uning ertangi kuni yetuk, malakali kadrlar tomonidan belgilanadi. Shuning uchun ta'lim tizimini takomillashtirish, yoshlarning bilimini oshirish va ta'lim sifatini yuksaltirish davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, o'qish, o'rganish va bilim olish uchun bugun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Endi esa biz yoshlar Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan bu tashabbuslarga javoban har qachongidan ko'ra ko'proq o'qib-o'rganishimiz, o'z ustimizda tinimsiz ishlashimiz, xalqimiz va vatanimizga tayanch bo'ladigan, nafaqat tayanch balki ertangi kuniga ishonch bag'ishlaydigan, kelajagini belgilab beradigan farzand, kadr va mutaxassis bo'lib yetishishimiz bugungi kunning asosiy talabi hisoblanadi. Shuni ham qo'shimcha qilish joizki, vatanimiz mustaqilligidan keyingi yillarda oliy ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, abituriyentlar uchun oliy o'quv yurtlariga kirish imkoniyati kengaydi: ilgari faqat bitta oliygohga hujjat topshirish mumkin bo'lgan bo'lsa, 2019-yildan uchta, 2020-yildan esa besh nafar oliygohga hujjat topshirish imkoniyati yaratildi[2]. Bu yangilik abituriyentlar uchun katta qulaylik bo'lib, ularning imkoniyatlarini kengaytirishga va o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qilmoqda. Yangi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda qayd etilgan yana bir muhim o'zgarish — bolalarning maktabga chiqish yoshi ilgari 6–7 yosh bo'lgan bo'lsa, endilikda qat'iy ravishda 7 yosh etib belgilanganidir[3].

Prezidentimizning Xalqqa Murojaatnomasida aytib o'tilgan muhim fikrlardan birini keltirib o'tmoqchiman. Murojaatnomada jumladan shunday deyiladi: maktab tizimida "o'qituvchi" degan nomning qadrini ko'tarish uchun, avvalo, ularning ma'naviy va moddiy ta'minotini yaxshilash zarur. Buning uchun o'qituvchilarga to'lanadigan oylik ish haqlarini oshirish, xususan, bir tumandan boshqa tumanga borib ishlaydigan o'qituvchilar uchun oylik

ish haqining 50 foizi, boshqa viloyatga borib ishlagan taqdirda esa 100 foizi miqdorida ustama haqi belgilanishi zarurligi[4] Prezidentimiz tomonidan ta'kidlab o'tildi. Maqolam so'ngida shuni misol qilib keltirmoqchimanki: ilm o'rgangan kishi hech qachon yutqazmaydi, yutqazmaydi ham. Zero, xalqini, jonajon vatanini, mehribon ota-onasini yaxshi ko'rgan, ular uchun qayg'urgan inson aslo ertangi kelajagini beparvo qoldirmaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. С.А. Ҳайдаров. (2020). Ўзбекистон тарихини ўқитишда “Зафарнома”дан фойдаланишни имкониятлари. Science and Education. 1(7). 192-198
2. Сулаймон Амиркулович Ҳайдаров. (2020). Тарих дарсларида интеграциялашган технологиялардан фойдаланиш. Science and Education. 1(8). 666-671
3. Ҳайдаров С. (2020). Ўзбекистон тарихи дарсларида педагогик технологияларни уйғунлашган ҳолда қўллашнинг методик талаблари. Academic Research in Educational Sciences. 1 (3). 1313-1321.
4. Сулаймон Ҳайдаров. (2020). Ўзбекистон тарихи фани дарслари самарадорлигини оширишда тасвирий санъат воситаларининг роли. Science and Education, 1(6), 174-179
5. С.А. Ҳайдаров. (2020). Тарих дарсларида тасвирий санъат асарларидан фойдаланиш. Science and Education. 1(9). 458-461.